



## YUQORI SINF O'QUVCHILARIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Otajonova Barno Sobirjonovna

Farg'onan "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi ingliz tili fani o'qituvchisi

**Annatatsiya:** Ushbu maqola ilg'or xalqaro tajriba asosida o'qitishning zamonaviy usullarini joriy etish yoshlarga ta'lif - tarbiya berishga iqtidorlilarini rag'batlantirish va qo'llab - quvvatlashga katta e'tibor berilishi haqida to'htalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** malaka, metodika, hissiy va aqliy taroqqiyot ta'lif, aqliy ko'nikmalar, hissiy intellektual, shaxsning umumiy tafakkuri.

**Abstract:** This article focuses on the introduction of modern methods of teaching based on advanced international experience, and great attention is paid to encouraging and supporting young people who are talented in education

**Key words:** competence, methodology, emotional and mental development education, mental skills, emotional intellectual, general thinking of the person.

Yangi O'zbekistonda ta'lifning mazmunini yangilash, o'qitish metodlarini uzlusiz takomillashtirish, o'quvchilar bilimining oshirib borilishi – o'qituvchidan o'z bilimini uzlusiz ravishda to'ldirib va yangilab borishni, malaka va metodik mahoratini yuksaltirishni taqozo qiladi. Mamlakatimiz yuksalishiga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil-bu ta'lif tarbiya tizimidir. Shu sababli yoshlarga ta'lif - tarbiya berishga iqtidorlilarini rag'batlantirish va qo'llab - quvvatlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Istiqlolimizning istiqboli buyuk kelajak yaratish yo'lidagi maqsadlarimiz, hatti-harakatlarimizning pirovard natijasi bevosita ta'lif tizimidagi islohotlarimizga bog'liqdir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev takidlaganidek "Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lif islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak deb ta'kidlaganlaridek<sup>7</sup>", "Buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishda, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimiz taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohatlarimiz va rejalarimizning samarali taqdiri, avvalombor, davr talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli, yangicha tafakkurga ega bo'lgan, mustaqil fikrlay oladigan mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz".

Jamiyatni erkinlashtirish jarayonida shaxsning emotsional qobiliyatları va iqtidorını har jihatdan namoyon etish, uchun imkoniyat shart-sharoitlar yaratibgina qolmay balki insonning ruhiy ma'naviy hissiy va intellektual solohiyatini to'la namoyon bo'lishini talab qiladi. Hozirgi davrda shaxslar o'rtasidagi hissiy va aqliy intellekt jihatdan mavjud farqlar

<sup>7</sup> <https://nuu.uz/talim-tizimidagi-islohotlar-olimlar-va-yoshlar-nigohida-mavzuida-respublika-ilmiy-amaliy-konferensiya>



bilan bir qator ijodiy va tashkilotchilik qobiliyatidagi shaxsning umumiy tafakkuridagi farqlarga ham qayta e'tibor qaratish lozim. Bu ta'lism salohiyatidagi ko'pgina masalalarini hal etish muhim ahamiyatga ega. Bunday masalalar jumlasidan o'quvchilarni fikirlash va o'qish, ularni ta'lism ko'pchilik esa kasbiy va ijtimoiy sohada rivojlanish o'z imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishning diagnostikasi va korreksiyasini kiritish mumkin. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda jismoniy psixik rivojlanishi o'zining jadalligi bilan ajralib turadi. Shuningdek bilish jarayoning rivojlanishida undagi aqliy ko'nikmalar hissiy intellektual qobiliyatni rivojlantirishga zamin yaratadi. Aynan mazkur yosh davrda hissiy intellektual qobiliyatning rivojlanishi muhim sanalib, bu borada qator pedagoglar, psixologlar tamonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

L.S.Vigotskiy takidlaganidek, maktab o'quvchilarni hissiy rivojlanish orqasidan yetaklab borish kerak. Shu sababli o'quvchi hissiy rivojlanishi muhim dolzarb masala hisoblanadi.

Ta'lism jarayoni o'quvchini bilimlar bilan qurollantirish uning emotsional jihatdan rivojlanishni taminlashi lozim. Bilim egallah hissiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liqdir. Bilimlarni egallahda hissiy rivojlanishsiz, hissiy rivojlanish esa bilimlarsiz amalgam oshmaydi. Biroq hissiy rivojlanish tushunchasi o'zining mazmun jihatdan bilimlarni o'zlashtirishdan kengroq manoga ega.

O'quvchilarni aqliy rivojlanishi deganda turli fanlarga doir bilimlarni o'zlashtirishi, ularni tizimga solish va amalyotga tadbiq qilish ta'limga usullarni egallah hamda o'quvchilarda yangi shaxs sifatlarni vujudga kelishini nazarda tutiladi. D.B.Elkonin va V.V. Davidov rahbarligi ostida o'kazilayotgan tajribalar kichik yoshdagi o'quvchilarning emotsional intellektual rivojlanish zahiralarini ishga solish yo'l va vositalarini o'zlashtirishga bag'ishlangan. Ularning takidlariga qaraganda maxsus tashkil etilgan ta'lism tizimi natijasida o'quvchilarni abstrakt va obrazli fikr yuritish darajasi yanada ko'tarilishi mumkin takidlandu.

Tajribalarda nazariy va umumlashtiruvchi harakterdagi bilimlarning berilishi o'quvchilarga umumiy qonunyatlardan aniq ko'rinishga o'tish imkonini yaratmoq va ularni yetkazib berish fonida ya'ni umumiy hollardan hususiy hollarga o'tish amalgam oshirilmoqda.

N.A.Menchinskaya metodiga binoan matematika fanida kichik yoshdagi o'quvchilarning hissiy va aqliy taroqqiyotini aniqlash jarayonida ularni mavjud bilim uni amaliyota qo'llash fondini bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirib qo'llash darajasini hamda mantiqiy fikr yuritish holatini belgilashga harakat qiladi. Muallif shu asnoda o'zlashtirish konkret va abstrekt tafakkurning aloqasiga, analitik-sintetik faoliyat bosqichiga ahamiyat beradi. Bundan tashqari tadqiqotchi uchun eng muhammi o'quvchilar fikrini hususiyatdan umumiy mulohazaga almashtirish imkoniyati hisoblanadi. Chunki busiz aqliy taroqqiyot darajasi to'g'risida fikr yuritishi maqsadga muvofiq emas.

Rus pedagog-psixolog Kabanova-Miller o'quvchilar hissiy va aqliy taroqqiyotni ta'lism usullar, o'quv ko'nikma malaka shaxsning o'z aqliy faoliyatining yangi sharoitiga fanlaroro qo'llanishga ko'chishda ularda tarkib topgan ko'nikma malaka va aqliy faoliyat shaxsning o'z aqliy faoliyatini bevosita iroda qilishiga boshqarishga o'tishda tashqi ta'sir natijasida



sinaluvchilarning bilimiga qiziqish faoliyati qay darajada ekanligini aniqlashda deb talqin qilinadi.

Bundan tashqari E.N. Kabanova –Miller o'quvchilar emotsiyal intellekt taroqqiyotini silliqlashtirish va bilimlarni "tenglashtirish" metodini ham ishlab chiqadi. Mazkur nazarya o'quvchilardagi mavjud kamchiliklarni kamaytirishga yordam beradi. Mazkur yo'l bilan o'tkazish o'quvchilar bajarishi zarur bo'lgan topshiriqlarni ularning serqirra faoliyat funksiyasiga aylantirib beradi. Shaxs emotsiyal kamolatiga ta'sir etuvchi omillani aniqlashning diagnostik usullari. Shaxs aqliy kamol topishda va uning xulqiga ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha bir xil bo'lavermaydi. Sababi odamning xulqiga, munosabatiga va aloqalariga yoshi, bilimi, hayotiy tajribasi, odatlari va nihoyat vaziyat ham ta'sir etadi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri aniqlash va behato baxolash uchun uni turli munosabatlar doirasiga turli vaziyatlarda kuzatib ko'rish lozim. Ana shundagina shaxsning ijtimoiy xulqi manaviy qiyofasi, insoniy fazilatlari royobga chiqadi. Shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal qilish uchun uning xulqiga tasir etuvchi omillarni, bu omillarni tabiatini shaxsning hususiyatini yaxshi bilmox kerak.

Pedagogika "shaxs" tushunchasi "inson" tushunchasida farqli o'laroq u insonni ijtimoiy hususiyatlarini anglatadi. Yangi jamiyat boshqa odamlar bilan momilada bo'lishi, munosabat o'rnatishi natijasida shakillanib boradigan sifatlarni bildiradi. Insonning psixik hususiyatlarini rivojlantirishi aql, iroda, diqqat, harakat hayoti o'z o'rnini topa olishi, uning vatani xalqning ravnaqi yo'lida olqishlay e'tiqat bilan hizmat qilishi, imkon bolishi insonni shaxs darajasiga ko'taradi. Bunday sifatlarni ro'yobga chiqarish tarbiyaga bog'liq bo'ladi.

Bolaning kamolatiga, ruhiyatiga fel-atvori shakillanishiga qanday omillar ta'sir etadi. Pedagagikada bola tarbiyasiga, uning shakillanishiga biologik omil, ijtimoiy omil va ta'lim va tarbiya tasir etetuvchi omillar shular hisoblanadi. Insonning emotsiyal intellekti uchun eng muhim narsa shuki u atrofimizni o'rab olgan va olamdag'i narsa va hodisalar o'rtasida bog'lanishi va munosabatlarini aks ettirish hamda shu bilan ijoriy ravishda qayta o'zgarish imkonini beradi. N.Leytesning ko'rsatib o'tganiga qaraganda oily nerv faoliyati hususiyatlarida faollik va o'z-o'zini tartibga solishning ayrim shart-sharoitlari bo'lib, bular umumiy aqliy qobiliyatlarni toptirishning muhim ichki sharoitlaridan iboratdir.

Mazkur tadqiqot Emotsional intellektni tekshirishning eng keng tarqalgan metodlaridan biri Amerikalik psixolog D.Vekslar tamonidan ishlab chiqarilgan bolalar intellektlarini o'lhash shkolasidan iboratdir. Sinaluvchilar bilan tadqiqot ishi o'tkazishdan so'ng olingan natijalar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi. Hissiy aqliy faoliyat bilan jismoniy faoliyatning o'zoro uzliksiz almashib turishi ko'p jihatdan o'quvchining individual hususiyatiga bog'liq bo'lishi mumkin. D.B.Elkonin boshlang'ich sinf o'quvchilarning hissiy faolligini boshqarishga o'rgatish uchun:

1. Berilgan topshiriqni bayon qilish uchun vositalarni tanlash
2. Mashq va topshiriqlarni yechish vaqtida o'z-o'zini nazorat qilish
3. O'zlashtirish darajasini baxolash
4. O'z-o'zini tekshirish
5. O'z-oldiga maqsad qo'yish



6. Simvollar belgilar amaliyotlar bilan predmetni ichki munosabatlar mavjudligini tushunish kabi jihatlariga e'tibor qilish uqtirib o'tadi.

Kichik maktab bolalarida, emotsiyal intellekt rivojlanishi ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lib, unga beriladigan nazariy materiallarga reaksiya bildirish orqali amalgam oshadi. Shu shaxsni rivojlanganligi bilan bog'liqdir. Aynan shu yoshdagi o'quvchilarda hissiy qobiliyatlarini rivojlanganligini o'rganish uchun hissiyotni o'lchash Veksler shkolasidan foydala biladi. Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun emotsiyal intellektual imkoniyatlarni rivojlantiradigan mashhg'ulotlar jamlanmasi tavsiya etiladi.

Emotsional intellekt o'rganish va rivojlantirish mumkin bo'lgan malakadir. Emotsional intellekt modeli yaxshiroq aniq tasniflangan holda yaratilgan. Bu har bir kishi ega bo'lgan hissiy intellektning har bir darajasini ko'rsatish uchun ierarxik darajalarga ega bo'lgan yanada tuzilgan baholash va aralashuv modeli bo'lib, ushbu darajani mustahkamlashga va shaxsning keyingi hissiy intellekt darajalariga progressiv rivojlanishiga hissa qo'shish uchun operatsion tartib-qoidalarga ega. Bu shaxsning keyingi rivojlanishi va evolyutsiyasi metodologiyasi. Ushbu model shaxslararo munosabatlar, ta'lim, maxsus ta'lim, umumiy ta'lim va akademik litsey o'quvchilarida muvaffaqiyat kabi hayotning har qanday jabhasida baholash, baholash va o'qitish vositasi sifatida amaliy qo'llanilishi mumkin. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Emotsional intellekt yaxshi hayot uchun aqli ong kabi muhim va ba'zi hollarda u muhimroqdir.

Yuqori sinf o'quvchilarida emotsiyal intellektni rivojlantirish jarayonlari samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni, mavjud ziddiyatlarni va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash, pedagogik tizim hisoblangan yuqori sinf o'quvchilarida emotsiyal intellektni rivojlantirish jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash va samaradorligini oshirishda strategik rejorashtirish (barcha uchun qulay ta'limiy muhitni rivojlantirishga maxsus, funksional, mujassamlashtirilgan va diversifikatsiyalashgan strategiyalarni qo'llash), uning turlari va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008.-176 b.
2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir – T.. O'zbekiston, 2015. – 304 b.
3. Shoumarov G.B, Sharipova D. Oila etikasi va psixologiyasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1991.
4. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq.-T.: O'qituvchi 1992.-160b
5. Maslou A.G. Motivatsiya ilichnost. – SPb, 1999, -78s
6. Maslou A.G. Samoaktualizatsiya // Psixologiya lichnosti: Teksty. –M.: 1982. – s. 108-118.,
7. Muslimov N.Ava boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 59 b.



8. Fayzullaeva N. Pedagogik bilimlar – o'qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi //Uzluksiz ta'lism. – T.: 2006. 6-son. – 102-b.
9. Mahmudov A.X. Uzluksiz ta'lism jarayoniga kompetentlik yondoshuvini joriy qilishning didaktik asoslari // Uzluksiz ta'lism. 2012y. №4 . 8-12 betlar
10. Qorayeva L.Z. Kreativlik - o'quvchi faoliyatining asosi sifatida.
11. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lism samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDPU, 2005 y.
12. <http://vak.uz> (O'zR OAKning rasmiy veb sayti).
13. <http://www.pedagog.uz> (TDPU ning rasmiy veb sayti).
14. <http://www.istedod.uz> (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iste'dod" jamg'armasi sayti).
15. <http://socpedagogika.narod.ru> (ijtimoiy pedagogika bo'yicha sayt).
16. <http://rc.nsu.ru/> (Pedagogicheskiy jurnal).